

3-4 SINFLARDA QO'SHIQ KUYLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA NOTAGA QARAB KUYLASH QOIDALARI

Maxkamjanov Samandar Qodir o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa darslarida notaga qarab qo'shiq kuylash malakasini shakllantirish va rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. O'quvchilarning mustaqil ravishda notalar asosida solfedjio kuylash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida tinglash madaniyati, ijro texnikasi va badiiy tafakkurning ahamiyati yoritiladi. Musiqa darslarining pedagogik tamoyillari va didaktik qonuniyatlari asosida tuzilishi, qo'shiqlarni tanlash, tahlil qilish, va ijro etish jarayonining o'ziga xosliklari bayon etiladi. Shuningdek, ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish (acapella) va cholg'u jo'rligida ijro qilish o'quvchilarning eshitish qobiliyati, ritm sezgisi, hamohanglikni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi. Vokal malakalari va ovozni parvarish qilish bo'yicha maxsus mashqlar, musiqiy yozuvni o'rgatish bosqichlari va qo'shiqni to'g'ri kuylash texnikasi ham yoritilgan. Maqola musiqa ta'limining samaradorligini oshirish uchun amaliy usullar va vositalarni belgilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, qo'shiqlar, ashulalar, vokal, ovoz, texnika, solfedjio.

Ma'lumki, notaga qarab kuylanadigan musiqalar o'z xususiyatiga ko'ra quyi sinfdagidan farqli o'laroq bo'lib, o'quvchilar endi mustaqil ravishda notani qo'llariga olib solfedjio kuylaydilar, undagi repertuarlarda simfonik orkestr ijrosidagi va maqom ijrochiligidagi qo'shiqlar ham ko'zga tashlanadi.

Bunda o'quvchining tinglash madaniyati asosiy rol o'ynaydi, ijro etilayotgan asarni musiqa sur'atiga sozlanib, uning har bir elementini anglab olib tinglanmasa asar mukammal idrok etilmaydi. Shuning uchun ham musiqa asarlarini qayta-qayta tinglanganda uning yangi badiiy qirralari ochilib, qo'shiqni so'z va solfedjio kuylash imkoniyati kengayib boradi. Musiqa darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va tamoyillari asosida tuziladi. Mazkur tamoyillar dars mazmuni, metodlari va darsning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi.

Musiqa asarlarini o'qish jarayonining asosiy qonuniyatlari didaktik tamoyillarda o'zining aniq ifodasini topgan. O'qish tamoyillari deganda o'qitish asosida yotadigan o'quv jarayoni va uni o'tkazishning butun jarayonini tashkil etish mazmuni, metodlari, shakllarining tanlanishini belgilaydigan boshlang'ich qonunlarini tushunmoq kerak. Tamoyillar o'rtasida o'zaro uzviy aloqa mavjud. Ulardan birining buzilishi o'z-o'zidan ikkinchisining buzilishiga olib keladi. Tamoyillardan o'qitish qoidalari kelib chiqadi,



qoidalar o'qituvchining ayrim usullari xarakterini belgilaydi va tamoyillarni amalga oshirishga olib keladi. Qoidalar faqat didaktika tomonidan emas, balki o'quv vaziyatiga tegishli bo'lgan xususiy metodikalar tomonidan ham ishlab chiqiladi. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda ham musiqa savodini o'rgatish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi. Tovushlarning baland-pastligi tushunchasini egallash ustida olib boriladigan ish jarayonida ularning cho'zimi tushunchasi asta-sekih kiritiladi. musiqa asarlaridagi tovushlar faqat muayyan balandlikkagina emas, balki muayyan cho'zimga ham ega ekanligiga, qisqa va uzun-cho'ziq tovushlar borligiga diqqatni jalb etiladi. Uzun tovushlarni cho'zib aytish kerak. Bunda qo'shiqning grafik rasmdan foydalaniladi; tovushlar bu grafik rasmda cho'zimiga qarab qisqa yoki uzun chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Ushbu mashqlarni bajarishda o'qituvchi avvalo qo'shiqni qanday yozish kerakligini tushuntirib va ko'rsatib beradi, so'noshiqni yoki melodik parchani aytadilar, keyin uning ritmini qalam bilan parta qopqogga chertmak chalib ko'rsatadilar, shundan keyin o'qituvchi kuyning ritmik tuzilishini daftarga yozishni taklif qiladi, tekshirib ko'rish uchun o'quvchilardan biri uni doskaga yozib qo'yadi.

O'quv yilining ikkinchi yarmida (ikkinchi bosqich) nota yozuvini egallash mashg'ulotlariga kirishi mumkin. O'qituvchi nutqomizni, har bir so'zimizni harflar bilan yozish mumkin bo'lgani kabi, musiqani ham yozish mumkinligini, ammo buning uchun musiqaga xos harflarni - notalar deb ataladigan belgilarni bilish kerakligini tushuntirib beradi, notani yaxshi bilgan kishining har qanday qo'shiqni ayta olishini uqtirib o'tadi.

Vokal malakalarini hosil etishda bu organlarning bir vaqtda o'zaro aloqada va normal ishlashga erishishi zarur. Bu tadbirlar nafasning tekis, osoyishta, to'liqlik chiqishiga va nutq talaffuzining yaxshi rivojlanishiga katta yordam beradi. Musiqa o'quvni o'stirish, ovozni parvarish qilish va vokal xor malakalari hosil etishda maxsus vokal mashqlari, ya'ni uch tovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida va uning kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida qo'shiq aytib, bir ovozda asosan, yallalar yoki qo'shiqlardan parchalar aytib, "ovozni maromga solish" katta ahamiyatga egadir.

Notaga qarab qo'shiq aytish malakasi ham shu xilda mashq qilish yo'li bilan hosil etiladi. Bu xildagi mashqlar uchun har darsda 3-6 minut vaqt ajratiladi. Dasturda cholg'u asbobi bilan jo'r bo'lib va jo'rsiz qo'shiq aytilishi nazarda tutilgan.

Jo'rsiz qo'shiq aytish (aocapella) musiqa uquvining o'sishiga ko'p ovozli qo'shiqlarning hamjihatlik bilan aytilishiga, ohangdoshlikka, diqqatni kuchaytirishga yordam beradi. Musiqa asbobi jo'rsiz xor bilan qo'shiq aytganda o'qituvchi ham, o'quvchilar ham qo'shiqdagi barcha noto'g'riliklarni yaxshi sezaдилar. Jo'rsiz qo'shiq aytishni o'rganishning ahamiyati ham ana shundadir.

Dasturda ko'rsatilgan qo'shiqlardan tashqari, o'qituvchi matbuot, radio yoki televidenie orqali e'lon qilingan yangi qo'shiqlardan ham tanlab olish mumkin. Shuningdek,



ayrim qo'shiqlarni chorakdan chorakka yoki sinfdan sinfga ko'chirish huquqi ham beriladi. Shunga intilish kerakki, o'quvchilar sinfdan o'rganib olgah qo'shiqlarini har yoklama anglab, ta'sirli qilib ijro eta oladigan bo'lsin. Bu esa qo'shiqning qanday o'rganilganligiga, o'qituvchining qo'shiqdagi badiiy obrazni nechog'li ishonarli qilib ochib bera olganligiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchining darsga yaxshi tayyorlanishi qo'shiqni muvaffaqiyatli o'rgatishning muhim shartidir.

U o'quvchilar bilan birinchi marta o'rganiladigan qo'shiqni juda yaxshi bilishi, to'g'ri va ta'sirli kuylab berishi kerak. O'qituvchi qo'shiqni chuqur o'rganib chiqqanidan keyingina uni o'quvchilarga o'rgatish mumkin. Har bir qo'shiqni, xatto eng oddiysini ham, juda sinchiqlab tahlil etish, uning g'oyaviy mazmunini bilib olish va musiqada shu mazmunning qanday ifoda vositalari bilan aks ettirilishini aniqlab olish zarur. Butun qo'shiqni ijro etish rejasi oldindan belgilab olinadi va o'qituvchining darsda o'tkazadigan suhbatlarining mazmuni, ya'ni qo'shiqning asosiy suroati va undan chetlanishlar, rang-barangliklar, tovush xususiyatlari uylab chiqiladi.

Agar ogizni yumgan xolda kuylash, xor va yakkaxon - peshxonlarning almashib turishi kabi ijro usullari bilan qo'shiq jarangdorligiga xilma-xillik kiritish mumkin bo'lsa, o'qituvchi bu usullarni qaerlarda qo'llanish va o'quvchilardan qaysi biri yakkaxon bo'lishi keraqligini belgilab qo'yadi. U tekstning ta'sirini kuchaytirish uchun qo'shiqning qaysi so'zlarini ajratib ko'rsatish va uqtirib o'tish zarurligini muljallab qo'yadi. Shuningdek, qo'shiqni ijro etish texnikasini ham puxta bilib olib, qanday joylarda nafas olish qo'llay bilishini, qo'shiqni qaysi tomonlari murakkabligini, nima uchun o'quvchilarning o'zlashtirishlari qiyinligi va qaysi tomonlarini o'zlashtirishlar oson bo'lishini aniqlash kerak.

O'qituvchi qo'shiqning murakkab o'rinlarini aniqlagach, ularni o'rganishni osonlashtiradigan vositalarni topa oladi. Masalan, bu urinlar intonatsiya qiyinchiliklaridan iborat bo'lsa, yordamchi mashqlar tuziladi. Vokal malakalarini hosil etishda bu organlarning bir vaqtda o'zaro aloqada va normal ishlashga erishishi zarur. Bu tadbirlar nafasning tekis, osoyishta, to'liqlik chiqishiga va nutq talaffuzining yaxshi rivojlanishiga katta yordam beradi.

Musiqaga o'quvni o'stirish, ovozni parvarish qilish va vokal xor malakalari hosil etishda maxsus vokal mashqlari, ya'ni uch tovushli, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida va uning kvinta yoki oktava miqyosidagi qismlarida qo'shiq aytib, bir ovozda asosan, yallalar yoki qo'shiqlardan parchalar aytib, "ovozni maromga solish" katta ahamiyatga egadir. Notaga qarab qo'shiq aytish malakasi ham shu xilda mashq qilish yo'li bilan hosil etiladi. Bu xildagi mashqlar uchun har darsda 3-6 minut vaqt ajratiladi.

Dasturda cholg'u asbobi bilan jo'r bo'lib va jo'rsiz qo'shiq aytilishi nazarda tutilgan. Jo'rsiz qo'shiq aytish (acapella) musiqaga uquvining o'sishiga ko'p ovozli qo'shiqlarning hamjihatlik bilan aytilishiga, ohangdoshlikka, diqqatni kuchaytirishga yordam beradi.



Musiqqa asbobi jo'rsiz xor bilan qo'shiq aytganda o'qituvchi ham, o'quvchilar ham qo'shiqdagi barcha noto'g'riliklarni yaxshi sezadilar. Jo'rsiz qo'shiq aytishni o'rganishning ahamiyati ham ana shundadir.

Bu o'quvchilarda yoshligidan o'zbek xalq kuylarida mehr-muhabbat hissini, ularga hurmatini uyg'otadi. O'quvchilar o'zlari o'zbek xalq kuylarini cholg'uda ijro etishsa, anchagacha eslarida qoladi. Uchinchidan, bu cholg'ular tafsifi, uni ijro etish malakalari va ko'nikmalari batafsil yoritib beriladi. Lekin bu kitobning murakkab jihati - o'quvchilarda mashg'uloti jarayonida qo'llash qiyinchilik tug'diradi. Bu masalani bartaraf etish uchun mashg'ulotdan tashqari vaqtda qo'llash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alaviya M. «O'zbek xalq marosim qo'shiqlari» Toshkent, Fan, 1974 y.-221 b.
2. Karomatov F. O'zbek xalqi muzika merosi (yigirmanchi asrda) Toshkent, 1985 y. 2-tom.
3. Ibrohimov O.A. «O'zbek xalq musiqa ijodi» (metodik tavsiyalar I qism), Toshkent, 1994 y.
4. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2008.
5. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1997.
6. Bahriev A.R. Talabalarda musiqiy idrok shakllanishi / Xalq ta'limi, №3/2002.
7. Jalilov M.R, Sadirov J.S. "Qo'shiqlar xrestomatiyasi. Toshkent, O'qituvchi, 1995 y.
8. Nurmatov X., Norxo'jaev N.. Musiqa 2- sinf. Toshkent, G'.G'ulom.
9. Nurmatov X., Norxo'jaev N.. Musiqa 3- sinf. Toshkent, G'.G'ulom.
10. Gaziyeu, J. J. (2021). VOCAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 260-262).
11. Maxkamjanov, S. (2025). INNOVATION TECHNOLOGICAL MUSICAL EDUCATION DEVELOPMENT RESULTS ANALYSIS. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 428-430.
12. Joraxanovich, G. J. (2023). Psychological Factors Of Musical Education. JournalNX, 9(11), 8-10.
13. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MUSICAL EDUCATION PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 3(36), 220-224.
14. Gaziyeu, J. J. R. (2024). GENERAL EDUCATION SCHOOLS MUSICAL CULTURE EDUCATION MUSICAL CULTURE EDUCATION METHODS APPLICATION. Oriental Art and Culture, 5(3), 414-419.





15. Qodir o'g'li, M. S. (2025). INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(32), 87-91.
16. Gaziyeu, J. J. (2024). NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI. Inter education & global study, (5 (1)), 456-465.
17. Qodir o'g'li, M. S. (2024). INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(28), 68-71.

